

UDK 633.11

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARIDA STANDART TALABLAR VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SERTIFIKATLASHTIRISH TAMOYILLARI

*Axmedova Dilfuza - Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*17-MSSB-21 magistranti*

*Najmiddinova Yoqutxon - Namangan muhandislik-qurilish instituti*

*“Metrologiya va standartlashtirish” kafedراسi dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini sinash, sertifikatlash, sinash asboblari, oziq-ovqat mahsulotlarini havfsizlikgi va standartlari hamda sertifikatlashtirish sxemalari, sertifikatlashtirish tamoyillari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Oziq-ovqat, mahsulot, saqlash, simash, standart, usullari, GOST, ishlab chiqarish, sertifikatlashtirish, sertifikatlashtirish qonuni, sxemalari vahokazo.

**Аннотация:** В этой статье представлена информация о тестировании пищевых продуктов, сертификации, испытательном оборудовании, безопасности и стандартах пищевых продуктов, а также схемах сертификации, принципах сертификации.

**Ключевые слова:** Пищевая продукция, продукт, хранение, хранение, стандарт, методы, ГОСТ, производство, сертификация, закон о сертификации, схемы и др.

**Abstract:** This article provides information on food testing, certification, testing equipment, food safety and standards, and certification schemes, certification principles.

**Key words:** Food, product, storage, storage, standard, methods, GOST, production, certification, certification law, schemes, etc.

Sertifikatlashtirishda standartlarni qoʻllashda qiziquvchi va ishlab chiqiuvchi tomonlar ishlab chiqiladigan standartlarni va texnik reglamentlarni qabul qilinishi, xalqaro savdoda toʻsiqlarni yaratmaydigan shaklda qoʻllanilishiga imkoniyat yaratishi lozim. Tomonlar texnik reglamentlar, standartlarni qoʻllanilishinida xalqaro savdoda qoʻshimcha toʻsiqlar kelib chiqmasligiga kafolat berishi lozim.

Shunday holatlarda, yaʼni qachonki zaruriyat tugʻilganda texnik reglamentlar yoki standartni ishlab chiqishni oxirgi bosqichiga kelgan standartlar balki amaldagi xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqiladi va standartlar yoki texnik reglamentlarni ishlab chiqish uchun asos sifatida qisman yoki toʻliq bu standartlardan tomonlar foydalanishi lozim boʻladi.

Agarda amalda boʻlmagan xalqaro standartlariga muvofiq yoki taklif qilinayotgan texnik reglament yoki standartlarning texnik tarkibi xalqaro standartlarning texnik tarkibiga toʻliq oʻxshashligi muvofiq boʻlsa va agar texnik reglament yoki standart boshqa davlatlar savdosida sezilarli taʼsir qilsa, tomonlar quyidagilarga majburdirlar:

– qiziquvchi tomonlarga taklif qilinayotgan muayyan texnik reglamentlar yoki standartlarni nashr qilishda ularga tushunarli boʻlishi uchun oldin qanday qilib maʼlumotlarni sigʻdirish va chop etish kerakligini;

– Butun jahon savdo tashkiloti kotibiati orqali qanday mahsulot turi texnik reglamentlarni ishlab chiqishni talab qilayotganligi to‘g‘risida boshqa tomonlarga xabar berish, taklif qilinayotgan texnik reglamentlarni maqsadi va ularni ishlab chiqish kerakligini asoslashni qisqacha ko‘rsatish;

– talablar bo‘yicha boshqa davlatlar haq-huquqlarini (texnik reglamentga bo‘lgan munosabatini) chegaralamaslik hamda boshqa tomonlarning qiziquvchi shaxslari (standartlarga bo‘lgan munosabati) to‘liq ma‘lumot yoki agarda imkoniyat bo‘lsa, xalqaro standartlarga muvofiqligidan farqli o‘zining holati bo‘yicha bu hujjatning shu qismini ko‘rsatib nusxasini taqdim qilish.

Majburiy sertifikatlashtirishda muayyan mahsulotga me‘yoriy hujjatlar qo‘llaniladi. Bundan tashqari mahsulotga o‘rnatilgan majburiy talablar, boshqa rasmiy nashr qilingan MH, sinov usullari standartlari, texnik reglamentlar, qonuniy aktlardan foydalaniladi.

Odatda sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga MHLarda tavsiflar (ko‘rsatkichlar) ro‘yxati, majburiy sertifikatlashtirishda turgan tekshirish, sertifikatlashtirish sinovini o‘tkazish tartibi va hajmi, hamda zaruriyat bo‘lganda gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya yoki ekologik talablardan tarkib topgan bo‘ladi.

Agar MHda sertifikatlashtirish sinovi haqida bo‘lim bo‘lmasa yoki davlatlararo standartlar qo‘llanilsa, ya‘ni, bu standartdagi barcha talablar majburiy deb yozilgan bo‘lsa, unda sertifikatlashtirish idorasi MHda ko‘rsatilgan barcha kompleks tavsiflaridan, xavfsizlik bo‘yicha talablarni tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni tanlab oladi.

Agarda arizachi mahsulotning MH ni taqdim qilmasa, sertifikatlashtirish idorasi mavjud mahsulot turi analogi MH fondidan sertifikatlashtirish uchun foydalanadi. Bunda arizada ko‘rsatilgan mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlari va mavjud texnik hujjatini hisobga olib qo‘shimcha sinov dasturi ishlab chiqiladi.

Eksport qilinayotgan mahsulotlar xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashgan standartlar, yoki buyurtmachi va (arizachi) tashkilot shartnomada o‘zaro kelishuvlarni hisobga olib import qiluvchi davlat MH bo‘yicha sertifikatlashtiriladi.

Xalqaro tizim doirasida sertifikatlashtirishda, bu tizimda qabul qilingan xalqaro standart talablariga mahsulot muvofiqligi tasdiqlanadi.

Sertifikatlashtirishda MH barcha talablariga tekshirish zarur bo‘lganda sertifikatlashtirish idorasi unga qo‘shimcha hujjatlar (sifat tizimi yoki ishlab chiqarishga sertifikati, layoqatli tashkilot sinov bayonnomalari, gigiyenik, veterinariya, fitosanitariya, ekologik sertifikatlar (xulosalar), ta‘minotchining texnikaviy hujjatlari va h.k.) mavjudligini hisobga olib muayyan holatlarni aniqlaydi.

Bunda gigiyenik sertifikatlarni SI ga berganda, davlat sanitariya nazorati idorasi sinov bayonnomalari nusxasi ilova qilinishi lozim.

Agar qo‘shimcha hujjatlarda ASL muayyan ko‘rsatkichlari bo‘yicha sinov natijalaridan tarkib topsa, unda SI bu natijalarni muvofiqlikni baholash uchun qo‘shimcha sinovlarsiz foydalanishi mumkin. Bunda bo‘lib o‘tgan sinov muddatini hisobga olinadi. Bunda u mahsulotning MH bo‘yicha yaroqlilik muddatidan oshmasligi lozim.

*Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish tamoyillari.*

Sertifikatlashtirish sohasida to‘siqlar Kelishivida muvofiqlikni baholash va baholash natijalarini tan olish jarayonlari masalalariga to‘xtalib o‘tildi. Ichki tovarlarni

ishlab chiqarish uchun va import qilinayotgan mahsulotlar uchun eng maqbulidan kam bo'lmagan tartib yaratishi lozimligining umumiy tamoyillari Kelishuvda ifoda etilgan.

O'zbekiston uchun sertifikatlashtirish milliy tizimida BSTga qabul qilish yo'li bo'yicha harakatiga imkon beruvchi STT/BST o'rnatilgan qoidalar qabul qilindi va buning uchun asosiy bandlardagi quyidagi masalalarni hal qilinishi lozim:

- xalqaro muvofiqlikni tasdiqlash tizimlarida va mahsulot muvofiqligini baholash sohasidagi muammolar bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar ishlarida qatnashish;

- muvofiqlikni tasdiqlash va sinov natijalarini o'zaro tan olish to'g'risida xorijiy mamalakatlar milliy idoralari bilan kelishuvlarni kiritish;

- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimidagi sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarini xorijiy akkreditlashtirish;

- sertifikat va sinov bayonnomalarini o'zaro tan olish bo'yicha xorijiy milliy idoralar va mahalliy idoralarni o'zaro kelishuvini tuzish;

- akkreditlash bo'yicha milliy idora xalqaro kelishuvda ya'ni (sertifikatlashtirish idoralarni akkreditlashtirish bo'yicha xalqaro form) va ILAC (laboratoriyalarni akkreditlashtirish bo'yicha xalqaro konferensiya) ga to'la huquqli a'zo sifatida bo'lishi.

Sertifikatlashtirishning asosiy tashkiliy va uslubiy tamoyillari quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- sertifikatlashtirish ob'yektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ishonchligini ta'minlash;

- iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilardan mustaqillik va xolislik;

- xorijiy murojaatchilarga munosabat bo'yicha kamsitish, huquqlarini chegaralashni istesno qilish;

- murojaatchining sinov laboratoriyasi va sertifikatlashtirish idoralarni tanlash huquqi;

- sertifikatlashtirish ekspertlari va qatnashchilari javobgarligi;

- sertifikatlashtirish natijalari yoki muvofiqlik sertifikati (belgisi) muddatini tugashi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq va ravshanligi;

- sertifikatlashtirish ob'yekti xususiyatlarini, uni ishlab chiqarish va iste'molini hisobga olib ko'p qirrali va mohirona sinov usullari;

- sertifikatlashtirish faoliyatida qo'llanmalar va xalqaro ISO/MEK turkumli standartlar, EN 45000 turkumli Yevropa normalari va boshqa xalqaro hujjatlardan foydalanish;

- O'zbekistonda qatnashuvchi turli xil kelishuvlar asosida xorijiy akkreditlangan sertifikatlashtirish idoralari va sinov laboratoriyalarini, muvofiqlik sertifikati va belgisini tan olish;

- savdo sirlaridan tarkib topgan ma'lumotlar maxfiyligiga rioya qilish;

- zaruriyat bo'lgan holatlarida sertifikatlashtirish ishlariga iste'molchilar jamiyatini jalb qilish.

Baholash bo'yicha ishlarni bazaviy bosqichi bo'lib mahsulot namunasini tanlash va sinash, sifat menejmenti tizimi (ishlab chiqarish) ni baholash va auditori, sertifikatlashtirilgan mahsulot va uni ishlab chiqarish inspeksion nazorati hisoblanadi.

U yoki bu ishlarda aniqlangan ketma-ketlikda va sxemani aniqlash (xorijda - modul) muvofiqlikni tasdiqlash qo'llanilib va shuningdek, amaldagi milliy qonunchilikni hisobga olib sertifikatlashtirish idorasi yoki deklarasiyalash tashkiloti bularni tanlaydi.

Sertifikatlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish sohasida to'plangan xalqaro tashkilotlar tajribalari MDH ning barcha davlatlarida keng qo'llanilib kelinmoqda. O'zbekistonda 1992 yildan sertifikatlashtirish bo'yicha xalqaro tizim ishlarida qatnashish va kelishuvi sertifikatlashtirishning qonuniy asosini yaratdi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirishni o'tkazish ishlari oldin mahalliy mahsulotning me'yoriy hujjatlarini ISO, MEK va boshqa xalqaro tashkilotlarning xalqaro standartlariga muvofiq (davlat standartlari, texnik shartlar) keltirish bo'yicha, hamda bu mahsulotlarga me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, mahsulotga sertifikatlashtirish talablarini o'rnatish bo'yicha O'zdavstandart bilan hamkorlikda manfaatdor vazirliklar va mahkamalar ishlar olib borishdi.

Sertifikatlashtirish bo'yicha to'plangan tajriba ishlari jzbekiston Respublikasida mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirishni keng qamrovli yuritish va bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyatini berdi.

Respublikada sertifikatlashtirish aslida 1993 yil 28 dekabrda Respublika Oliy Majlisining O'zbekiston Respublikasi «**Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida»gi Qonunini** qabul qilinishi bilan kiritilgan.

Sertifikatlashtirish tizimini yaratishdan maqsad, muvofiqlik sertifikatiga tamoyillar qoidalarini belgilash va boshqarishdan iborat.

Sertifikatlashtirish tizimining asosiy vazifalari quyidagilar:

- sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan hujjatlarning yagona tizimini tashkil qilish;
- yagona atama va ta'riflarni ishlab chiqish;
- bir turdagi mahsulotlarni sertifikatlashtirishning qoida va tartiblarini ishlab chiqish;
- sertifikatlashtirish uchun o'tkaziladigan sinovlarning qoidalarini ishlab chiqish (bundan keyin sertifikatlashtirish sinovlari);
- sertifikatlashtirish qatnashchilarining davlat boshqaruv idoralari bilan o'zaro hamkorlik tartiblarini aniqlash.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimi O'zbekiston Respublikasining qonuniy va me'yoriy hujjatlariga muvofiq faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining sertifikatlashtirish milliy tizimida quyidagi faoliyat turlari olib boriladi:

- mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;
- sifat tizimlarini va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish;
- xodimlarni sertifikatlashtirish;
- sertifikatlashtirilgan mahsulot, sertifikatlashtirilgan sifat tizimi (ishlab chiqarish) va xodimlarni inspeksion nazorati;
- majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilinishi ustidan nazorat olib borish;
- sifat bo'yicha ekspert-auditorlarni attestatlash.

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida sertifikatlashtirish bilan shug'ullanuvchi chet davlatlar tizimi va tashkilotlar, hamda shaxslar uchun

sertifikatlashtirish tizimi qoidalarini tan olish sharti bilan ochiq deb hisoblanadi.

Sertifikatlashtirish ob'yektlar muvofiqligini tasdiqlash talablarini ta'minlaydi:

- davlatlararo standartlarga (MDH – mustaqil davlatlar hamdo'stligi);
- mahsulotga bo'lgan talablarni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan va rasman nashr qilingan me'yoriy hujjatlarga (keyinchalik MH);
- O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy idorasi (SMI) nomidan qo'shilgan sertifikatlashtirish tizimlari doirasidagi xalqaro va milliy chet el standartlari doirasida;
- texnikaviy reglamentlar

*Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirishda qo'llaniladigan sertifikatlashtirish sxemalari va joriy qilish yo'llari.*

O'zbekiston Respublikasi sertifikatlashtirish milliy tizimida aniqlanib tavsiya qilinayotgan sertifikatlashtirish sxemalari 2-jadvalda keltirilgan.

1 - sxema namuna turini sertifikatlashtirishda va akkreditlangan sinov laboratoriyalarida (ASL) mahsulotni sinash ko'zda tutilgan, majburiy ko'rsatkichlari bo'yicha birinchi navbatda, xavfsizlik bo'yicha sinashda qo'llaniladi. Ushbu sxema mahsulotga aniq belgilanmagan MH bo'lmaganda ham qo'llaniladi.

2 - sxema mahsulotni majburiy ko'rsatkichlarini ASLda sinash, keyinchalik savdo sohasidan (iste'molchidan) olingan namunalarni sinov yo'li bilan mahsulot inspeksion nazorati o'tkazib tekshirish ko'zda tutiladi.

3 - sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish ko'rigi va majburiy ko'rsatkichlarni tekshirish uchun mahsulotni sinash nazarda tutiladi. Ushbu sxemada tayyorlovchidan olingan, mahsulot sinovini o'tkazish bilan korxonada inspeksion nazorat o'tkazish ko'zda tutilgan.

4 - sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish kuzatuv va majburiy talablarni tekshirish uchun mahsulotni sinash ko'zda tutilgan. Ushbu sxemada savdo sohasidan (iste'molchidan) va tayyorlovchidan olingan namunalarni sinovini o'tkazish yo'li bilan mahsulot inspeksion nazorati ko'zda tutilgan.

5 - sxema ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sertifikatlashtirishda qo'llanilib, ASLda ishlab chiqarish kuzatuv yoki sifat tizimini baholash va majburiy talablarni tekshirish uchun mahsulotni sinash ko'zda tutilgan. Ushbu sxemada ishlab chiqarish ko'rigi (yoki sifat tizimini baholash) va mahsulot sinovini o'tkazish bilan inspeksion nazorat nazarda tutilgan.

6 - sxema sifat tizimini sertifikatlashtirishda qo'llaniladi va navbatdagi inspeksion nazorat o'tkazish, hamda uni baholash ko'zda tutilgan.

7 - sxema mahsulotning to'pi (partiyasi)ni sertifikatlashtirishda qo'llanilib va bu partiyadan olingan namuna sinovi ko'zda tutilgan.

8 - sxema har bir dona buyumni sertifikatlashtirishda qo'llaniladi.

9 - sxema mahsulot xavfsizlik talablariga muvofiqligini deklarasiya qilish ko'zda tutilgan. Bu sxema mahsulot o'rnatilgan talablarga muvofiqligini tasdig'ini ta'minlovchi hujjatlari bilan muvofiqligi haqida o'rnatilgan talablar asosida, mahsulot muvofiqligini deklarasiyalash sifatida foydalaniladi.

Bu sxema bo'yicha arizachi akkreditlangan sinov laboratoriyasida sinovni o'tkazishi, yoki sifat menejmenti tizimini sertifikatlashtirishi, yoki u bo'yicha

sertifikatlashtirish idorasiga ariza berishi va navbatdagi boshqa qabul qilingan deklarasiyalashni ta'minlaydi. Arizachida arizada ko'rsatilgan mahsulot muvofiqligi talablarini tasdiqlovchi bilvosita, yoki bevosita barcha zaruriy hujjatlarning mavjudligi 9-sxemani qo'llash shartlari bo'lib hisoblanadi. Agar bunday shartlar bajarilmasa, unda arizachiga mahsulotni boshqa sertifikatlashtirish sxemasi bilan sertifikatlashtirish taklif qilinadi.

9 - sxemani qo'llash quyidagi holatlar tavsiya etiladi:

– sertifikatlashtirishda qaytarilmaydigan import qilinayotgan mahsulot partiyasi ko'p bo'lmagan hajmidan, firma ishlab chiqarayotgan, ishlab chiqaruvchi jahon va o'zbek bozorida yuqori sifatli deb o'ziga tavsiyalovchi, yoki donali buyum, yo buyum komplekti (kompleksi), mahalliy ishlab chiqarishda kerakli asbob-uskunalar va boshqa ob'yektlarni, agarda buyum xavfsizligi haqida taqdim qilingan texnikaviy hujjatlar bo'yicha o'ylab ko'rilgan bo'lsa;

– mahsulotni sertifikatlashtirishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar, shu jumladan, xususiy tadbirkorlar, inspeksion nazorat o'tkazish majburiy bo'lmagan va bozorda unga so'rov imkoniyati bo'yicha bu mahsulotni nomuntazam ishlab chiqarishda o'rnatilgan tartibda o'z faoliyatini ro'yxatga qo'yish.

2-Jadval.

**Sertifikatlashtirish sxemalarining imkoniyatlari.**

<b>Sxyemalar raqami</b>	<b>Akkreditlangan sinov laboratoriyalarida sinash va muvofiqlikni boshqa yo'llar bilan isbotlash</b>	<b>Ishlab chiqarishni kuzatish yoki sifat tizimini baholash</b>	<b>Sertifikatlashtirilgan mahsulotni inspeksion nazorati (sifat tizimlari, ishlab chiqarish)</b>
1	Turini sinash		
2	Turini sinash		Savdo sohasidan (iste'molchidan) olingan namunani sinash
3	Turini sinash	Ishlab chiqarish ko'rigi	Tayyorlovchidan olingan namunani sinash Ishlab chiqarish ko'rigi
4	Turini sinash	Ishlab chiqarish ko'rigi	Savdo sohasidan (iste'molchidan), shuningdek, ishlab chiqarishdan olingan namunalarni sinash
5	Turini sinash	Ishlab chiqarish ko'rigi yoki sifat tizimini baholash	Mahsulot namunasini sinash va sifat tizimini baholash (ishlab chiqarish ko'rigi)
6	Turini sinash	Sifat tizimini baholash	Sifat tizimi holatini baholash
7	To'pini sinash		
8	Har bir namunani sinash		
9	Taklif qilingan hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida deklarasiyani ko'rish		

1-2 sxemalari xavfsizlik ko'rsatkichlari ishlab chiqarish omillaridan kam ta'sir qiluvchi mahsulotlarni sertifikatlashtirish uchun qo'llaniladi, teskari holatlarda 3-5

sxemalarni qabul qilish zarur.

5 - sertifikatlashtirish sxemasi bo'yicha majburiy sertifikatlashtirishni o'tkazish vaqtida tayyorlovchida sifat menejmenti tizimiga (ishlab chiqarish) sertifikati mavjud bo'lganda ishlab chiqarish holati tahlili o'tkazilmaydi.

5 – sxema, agar muvofiqlik sertifikati amal qilish muddati davomida, namunaviy vakil sinash natijalari ko'rsatkichlari seriyali mahsulot ishlab chiqarish barqarorligiga yetarli ishonch hosil qila olmagan holatlarda ham qo'llaniladi.

Mahsulotlarni 3, 4, 5, 7, 8, 9 sxemalar bo'yicha sertifikatlashtirilganda, mahsulot o'rnatilgan tartibda muvofiqlik belgisi bilan tamg'alanishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlari 28.09.2005 yil MYu N 1513 sonli ro'xatga olingan majburiy sertifikatlashtirishda turgan bir turdagi mahsulotlarni turlari bo'yicha sertifikatlashtirish qoidasida oziq-ovqat mahsulotlari sertifikatlashtirishda 3, 4, 7, va 9 sxemalar bilan sertifikatlashtirilishi mumkin.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlashtirish maqsadida sinashda mahsulotning me'yoriy hujjatlar talablarida mavjud fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari, sanot mikroblaridan xoliligi, toksik elementlarning massa ulushi, nitrozaminlar, gistamin, polixlorlangan bifenillar, pestisidlar, mikotoksinlar, aflotoksinlar, antibiotiklar, radionukleodlar, mikrobiologik ko'rsatkichlar, nitrit tarkibli, zararli aralashmalar va zararkunandalar bilan zararlanishi, mineral moddalar, genetik modifikasiya darajasi, me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq majburiy talablar tamg'alash va qadoqlash ko'rsatkichlari nazorati o'tkaziladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimqulov, Q. M., Uzoqov, I. E., Sarikulov, M. X., & Xursanova, M. Y. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlash va tasniflash usullari. *Science and Education*, 3(9), 157-161.
2. Erkaboyev, A. X. O. G. L., & Isroilova, N. F. Q. (2022). Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda iste'molchilar xavfsizligini ta'minlash. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1066-1072.
3. Xabibullo o'g'li, E. A. (2022). OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA ISTE'MOLCHILAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
4. Raxmatov, M. (2023). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MAHSULOT SIFATI TO'G'RISIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALARNING AHAMIYATI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 425-429.
5. Abdusami son, M.A. , Normatjonovich, A.A. , Bakhtiyor's daughter, J.M. , Sharobiddin, O.H. , Muhsiddin's , K.D. and Askarkhan , A.S. 2023. Analysis of Consumption Measuring Instruments Based on Pressure Changes. *Journal of Innovation, Creativity and Art*. 2, 1 (Jan. 2023), 140–146.
6. Кенжабоев, Ш. Ш., & Акбаров, А. Н. (2021). ЎСИМЛИК МОЙИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ПРЕССИДАГИ БЕШИНЧИ СИНФ АЙЛАНМА КИНЕМАТИК ЖУФТЛИГИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШ ҚУРИЛМАСИ. *МЕХАНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, (4), 14.

7. Носиров, М. И., & Акбаров, А. Н. (2019, October). Об экспериментальном стенде многооперационной машины для механической обработки кож. In *Сборник материалов XXIV Международная научно-практическая конференция «Инновация-2019».–Ташкент* (pp. 25-26).
8. Normatjonovich, A. A., & Sharobiddin, O. H. (2023). Teri Hom-Ashyosiga Mechanic Ishlov Beruvchi Kup. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(1), 160-165.
9. Акбаров, А. Н. (2018). Обжиг кирпича твёрдым топливом взамен газа. *Научное знание современности*, (4), 40-43.
10. Алимджанова, Д., Акбаров, А., & Муйдинова, Н. К. (2017). Способ повышения эффективности горения угольного топлива в кольцевой печи. In *Issues of modern education in the condition of globalization. Collection international scientific conference*.
11. Normatjonovich, A. A., Abdumukhtar, E. B., Sharobiddin, O. H., & Askarkhan, A. S. (2023). Босимни ўлчаш усулларининг қиёсий таҳлили. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(1), 147-152.
12. Мелибаев, М., & Абдуллажонов, Б. С. (2022). МАШИНАСОЗЛИКДА ДЕТАЛЛАРНИ ЎЛЧАМИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШДА МЕТРОЛОГИК ТАЪМИНОТ. *ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 109-115.
13. Мелибаев, М., Ортиқов, Х., Хўжаназаров, Ш., & Абдумаликов, А. (2022). Машина трактор агрегатларининг иш шароитларида носозликлар сабабларини баҳолаш. *Science and Education*, 3(3), 284-290.
14. Мелибаев, М., Хожиева, Д., Ортиқов, Х., & Ахмедова, Д. (2022). Шиналарнинг хизмат мувозанати ва эскириш кўрсаткичига таъсир этувчи омиллар. *Science and Education*, 3(3), 319-330.
15. Мелибаев, М., Негматуллаев, С. Э., & Ортиқов, Х. Ш. Движение шины негоризонтальной опорной поверхности (Шинанинг гоизонтал бўлмаган таянч юзадаги ҳаракати) ФерПИ. 2021. Том, 25(1), 176-178.
16. Ваходир, Е., Навитали, О., & Ramshid, A. (2022). ИРАК QURTINI BOQISH SHAROITINI OLINADIGA ИРАК MAHSULOTLARI SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. *ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 95-100.
17. Турғунбоевич, Қ. Ҳ., & Ўғли, О. Ҳ. Ш. (2022). ТУПРОҚНИ ТАКРОРИЙ ЭКИНЛАР ЭКИШГА ТАЙЁРЛАШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ. *Science and innovation*, 1(Special Issue 2), 49-55.
18. Normatjonovich, A. A., Abdumukhtar, E. B., Sharobiddin, O. H., & Askarkhan, A. S. (2023). Босимни ўлчаш усулларининг қиёсий таҳлили. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(1), 147-152.
19. Normatjonovich, A. A., Abdusami, M. A., Sharobiddin, O. H., & Askarkhan, A. S. (2023). Multi-Operation Machine Lever Mechanism Kinematic Analysis. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(1), 128-133.

20. Normatjonovich, A. A., & Sharobiddin, O. H. (2023). Teri Hom-Ashyosiga Mechanic Ishlov Beruvchi Kup. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(1), 160-165.
21. Bobamatov Abdug‘Ani Xusainovich, & Ortiqov Hayitali Sharobidin O‘g‘Li (2022). O‘lchashlar noaniqligining baholanishiga oid xalqaro darajadagi hujjatlar tahlili. *Механика и технология, (Спецвыпуск 1)*, 136-145.
22. Abdusami son, M.A. , Normatjonovich, A.A. , Bakhtiyor’s daughter, J.M. , Sharobiddin, O.H. , Muhsiddin’s , K.D. and Askarkhan , A.S. 2023. Analysis of Consumption Measuring Instruments Based on Pressure Changes. *Journal of Innovation, Creativity and Art*. 2, 1 (Jan. 2023), 140–146.
23. Ваходир, Е., Азимjon, М., & Hayitali, О. (2022). ПАХТАНИ YETISHTIRISHDAGI IQLIMIY SHAROITNI UN DAN OLINADIGAN TOLA SIFAT KO ‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 89-94.
24. Melibayev, M., Hasanov, M., Ortiqov, X., & Yusufjonov, Z. (2022). ТРАКТОР PNEVMATIK SHINASINING O ‘RTACHA ISHLASH RESURS MUDDATINI ANIQLASH. *TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 160-168.
25. Негматуллаев, С. Э., Мелибаев, М., Абдуллажонов, Б., & Ортиков, Х. (2022). ВЛИЯНИЕ ШЕРОХОВАТОСТИ ПОВЕРХНОСТИ НА ИЗНОСОСТОЙКОСТЬ ДЕТАЛЕЙ МАШИН. *BARQARORLIK VA YETAKSHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 505-509.
26. Мелибаев, М., Абдукадиров, А., & Ортиков, Х. (2019). ДИНАМИЧЕСКИЙ ПАСПОРТ ЗЕРНОУБОРОЧНОГО КОМБАЙНА" CASE". In *ВКЛАД УНИВЕРСИТЕТСКОЙ АГРАРНОЙ НАУКИ В ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА* (pp. 246-251).
27. Негматуллаев, С. Э., & Кенжабоев, Ш. Ш. (2021). ОСОБЕННОСТИ ТЕСТОВОГО КОНТРОЛЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН ТРАНСПОРТНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ. In *Современные автомобильные материалы и технологии (САМИТ-2021)* (pp. 224-227).
28. ДЖУРАЕВ, А. Д., ДАЛИЕВ, Ш. Л., & БОБОМАТОВ, А. Х. (2016). РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПЫТАНИЙ КОНСТРУКЦИИ СЕКЦИИ МЕЛКОЙ ОЧИСТКИ ХЛОПКА С СОСТАВНЫМИ РЕКОМЕНДУЕМЫМИ КОЛКОВЫМИ БАРАБАНАМИ И СЕТКАМИ НА УПРУГИХ ОПОРАХ. In *Поколение будущего: взгляд молодых ученых* (pp. 305-306). *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 1, 2023 ISSN: 151
29. Бобоматов, А. Б. А., Мирзабаев, Б. М. Б., & Махмудов, А. М. А. (2022). ИП ЙИГИРИШ КОРХОНАЛАРИГА АВТОМАТЛАШТИРИШ, ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ВА ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТЛАР ОРҚАЛИ СИФАТНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ ҲАМДА САМАРАЛИШ ИШ ТИЗИМЛАРИНИ ЯРАТИШ. *О‘ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(8), 388-395.

30. Djuraev, A., Madrakhimov, S., Bobomatov, A., & Mahmudov, A. (2022, June). Development of a resource-saving design and substantiation of the parameters of the composite cam lobe mechanism of the weaving machine. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2467, No. 1, p. 060008). AIP Publishing LLC.
31. Melibaev, M., Negmutullaev, S., Jumaeva, M., & Akbarov, S. (2023). POINT ESTIMATION OF THE TRUE VALUE AND MEAN SQUARE DEVIATION OF THE MEASUREMENT. *Science and innovation*, 2(A1), 179-186.
32. Makhliyo, J., Botirjon, A., Saidulla, A., & Makhmudjon, M. (2023). Metrology Service in Mechanical Engineering. *INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY*, 2(1), 86-91.
33. Бобаматов, А. Х. (2022). ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПОКАЗАТЕЛИ УСОВЕРШЕНСТВОВАННОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА-СЫРЦА. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 216-219.
34. Ходжиева, Д. М., & Кобилова, С. Я. (2020). СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ У МОЛОДЕЖИ К ИЗУЧЕНИЮ ИСТОРИИ. и современный взгляд на события второй Мировой войны, 170. *Journal of Innovation, Creativity and Art* Vol. 2, No. 1, 2023 ISSN: 152
35. Melibaev, M., Negmutullaev, S., Jumaeva, M., & Akbarov, S. (2023). POINT ESTIMATION OF THE TRUE VALUE AND MEAN SQUARE DEVIATION OF THE MEASUREMENT. *Science and innovation*, 2(A1), 179-186.
36. Melibaev, M., Negmutullaev, S., Jumaeva, M., & Akbarov, S. (2023). POINT ESTIMATION OF THE TRUE VALUE AND MEAN SQUARE DEVIATION OF THE MEASUREMENT. *Science and innovation*, 2(A1), 179-186.
37. Djhuraev, A., & Tashpulatov, D. S. (2018). SELECTION AND JUSTIFICATION OF WORKING PARAMETERS OF THE COTTON CHILDREN OF COTTON-RAW. In *The latest research in modern science: experience, traditions and innovations* (pp. 32-35).
38. Maxmudov, A. A., Aliyev, B. T., & Bobomatov, A. (2020). Detection of influencing forces of cotton flier on the elastic plate of impurity taking grid of the cleaner. *International Journal of Engineering Research & Technology.(IJERT)* ISSN, 2278-0181.
39. Шотмонов, Д. С., Маннонов, Ж. А., Бобоматов, А. Х., & Махмудов, А. А. (2016). ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ УЧИТЕЛЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. In *НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИНТЕГРАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ОБУЧАЮЩЕЙ СРЕДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 165-167).
40. Djuraev, A., Madrakhimov, S., Bobomatov, A., & Mahmudov, A. (2022, June). Development of a resource-saving design and substantiation of the parameters of the composite cam lobe mechanism of the weaving machine. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2467, No. 1, p. 060008). AIP Publishing LLC.
41. ДЖУРАЕВ, А. Д., ДАЛИЕВ, Ш. Л., & БОБОМАТОВ, А. Х. (2016). РЕЗУЛЬТАТЫ ИСПЫТАНИЙ КОНСТРУКЦИИ СЕКЦИИ МЕЛКОЙ ОЧИСТКИ ХЛОПКА С СОСТАВНЫМИ РЕКОМЕНДУЕМЫМИ КОЛКОВЫМИ БАРАБАНАМИ И СЕТКАМИ НА УПРУГИХ ОПОРАХ. In *Поколение будущего: взгляд молодых ученых* (pp. 305-306).

42. Джураев, А. Д., Мавлянов, А. П., Далиев, Ш. Л., Раджабов, О. И., & Бобоматов, А. Х. (2017). МНОГОГРАННАЯ СЕТЧАТАЯ ПОВЕРХНОСТЬ ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНИСТОГО МАТЕРИАЛА. In *ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ОБРАБОТКИ И ОБОРУДОВАНИЯ В МАШИНОСТРОЕНИИ* (pp. 85-87).
43. Qirgizov, N., Bobomatov, A., & Negmatullaev, S. (2022). Soil Tillage Unit For Repeated Crops. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1035-1039.
44. ДАЛИЕВ, Ш. Л., ДЖУРАЕВ, А. Д., & БОБОМАТОВ, А. Х. (2016). ПОЛНОФАКТОРНЫЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА ОТ МЕЛКОГО СОРА СЕТЧАТОЙ ПОВЕРХНОСТИ С УПРУГИМИ ОПОРАМИ. In *Поколение будущего: взгляд молодых ученых* (pp. 299-302).
45. Джураев, А. Д., Мавлянов, А. П., & Бобоматов, А. Х. (2016). МОДЕЛИРОВАНИЕ КОЛЕБАНИЙ СЕТКИ НА УПРУГИХ ОПОРАХ ОЧИСТИТЕЛЯ ХЛОПКА ОТ МЕЛКОГО СОРА. In *Металлообрабатывающие комплексы и робототехнические системы-перспективные направления научно-исследовательской деятельности молодых ученых и специалистов* (pp. 139-142).
46. Khamraeva, S. A., Yusupova, N. B., Atambaev, D. D. O., & Hasanov, M. H. O. (2020). The Importance of the extension tool in reducing the inequality of yarn. *The American Journal of Engineering and Technology*, 2(08), 39-44.
47. Atambayev, D. D., & Hasanov, M. H. (2020). Analysis of Fibrous Waste Generated in the Preparation Departments of Spinning Mills and Cotton Processing.
48. Muhridin, H. (2022). MILLIY STANDARTLARIMIZNI XALQARO STANDARTLAR BILAN UYG 'UNLASHTIRISH USULLARI VA ANAMIYATI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(4), 12-20.
49. Киргизов, Х. Т. (2022). ПРОГРЕССИВНЫЕ СИСТЕМЫ СМАЗКИ. *ТА'LIM VA RIVOJLANISH TAMLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 138-144.
50. Махмудов, А. А., Алиев, Б. Т., & Бобоматов, А. Х. (2020). ВЛИЯНИЕ НОВОЙ КОНСТРУКЦИИ СЕТЧАТОЙ ПОВЕРХНОСТИ С УПРУГИМИ ПЛАСТИНАМИ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОЧИСТКИ. *Интернаука*, (4-2), 22-25.